



## XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 1-iyul

VII-9-68-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

### **Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 1-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘sishimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining «2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi (O‘RQ-1011-son) Qonuni, “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalari, Byudjet kodeksining 28 va 126-moddalari ijrosini ta’minalash hamda 2025 yil 1-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘sishimcha manbalaridan foydalanish yuzasidan Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi

#### **Q A R O R Q I L A D I:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasining «2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 1-chorak yakuni bilan 1 609 052,6 ming so‘m miqdorida qo‘sishimcha manbalari shakllanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Tuman hokimligiga internet xizmatini saqlash xarajatlari uchun 23 600,0 ming so‘m mablag‘ 1-chorak daromadlar rejasini ortirib bajarilgan qismidan ajratilsin.

**3.** Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga, ajratilgan mablag‘ bo‘yicha tuzilgan hokimlikning va mahalla uyushmasi tuman bo‘limining xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (A.Nishonov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

**4.** Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.Jamolova)ga ajratilgan mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanishini ta’minalash vazifalari yuklatilsin.

**5.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirdorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Yo‘ldashev hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



ABDURAXMONOV  
ILXOMJON  
AKBARALIYEVICH